

UO'K: 619:636.31:614.212

**QORAKO'L SOVLIQLARNI DISPANSERLASHDA
KLINIK TEKSHIRISH NATIJALARI**

N.B.Ro'ziqulov, dotsent,

B.Bakirov, professor,

X.B.Yunusov, professor,

S.S.Asqarov, assistent,

P.Xasanova, iqtidorli talaba,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. В статье представлен анализ результатов клинических исследований (определение температуры тела, количества пульса и дыхания, количества сокращений рубца, желтушности слизистых оболочек, увеличения и болезненности области печени) каракульских овцематок при диспансеризации.

Abstract. The article presents an analysis of the results of clinical studies (determination of body temperature, pulse and respiration rate, number of rumen contractions, yellowness of mucous membranes, enlargement and soreness of the liver area) of Karakul ewes during medical examination.

Kalit so'zlar. Metabolizm. Modda almashinuvi jarayoni. Qorako'l sovliq. Dispanserlash. Klinik tekshirish. Tana harorati. Puls soni. Nafas soni. Katta qorin devori harakati. Shilliq pardalarning sarg'ayishi. Jigar distrofiyasi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub agrar islohatlar natijasida chorva mollari bosh sonining yildan-yilga ko'payib, mahsuldorligi oshib borayotgan bir paytda ayrim xo'jaliklarda 1-20 kunligacha bo'lgan 30-40 % qo'zilarning dispepsiya bilan kasallanishi va aksariyat holatlarda kasal qo'zilarning nobud bo'lish hollari kuzatilmoqda. Bu borada qo'zilar dispepsiyasining sabablarini aniqlash, davolash hamda oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Dunyo miqyosida qo'zilar orasida dispepsiya kasalligi juda keng tarqalgan. Xususan, AQShda buzoq va qo'zilar orasida o'lim 2,3-7,8 foizni, Kanadada 11,8 foizni tashkil etishi va o'lim darajasining mos holdagi, 56 va 14 foizini diareyalar tashkil etishi va natijada qo'ychilik xo'jaliklarining katta iqtisodiy zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda, ushbu kasallikning ertachi tashxis, samarali davolash hamda oldini olish muammolari dunyo olimlarining diqqatini jalb etib kelmoqda. Shu boisdan, qo'zilarda dispepsiyani ertach aniqlash hamda davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar ob'yekti va uslublari. Ilmiy tadqiqotlar 2021-2024-yillar davomida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako'lchilikka ixtisoslashgan "Olg'a" MCHJ, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi

“Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo'ychilik fermer xo'jaligi va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo'jaligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysi sharoitidagi sog'lom, ketonuriya, alimentar osteodistrofiya, alimentar distrofiya va jigar distrofiyasi bilan kasallangan bug'oz hamda tuqqan qorako'l zotli sovliq va qo'zilar olib borildi.

Laborator tekshirishlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasining “Gematologiya” laboratoriyasida, oziqalarni laborator tekshirishlar esa Samarqand viloyati “Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi”da o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Qorako'l sovliqlarni dispanserlashda suruvning so'nggi 3 yil mobaynidagi (poda sindromatikasi) har bir bosh sovliqdan olingan qo'zi soni, har bosh qo'y hisobiga olingan jun miqdori, qo'ylarning qisir qolish foizi, kasallanish va chiqim ko'rsatkichlari, qo'zilarning tahlil qilindi. Sovliqlar ratsioni zootexnik tahlildan o'tkazildi, yil mavsumlari va bug'ozlik davrlari bo'yicha sovliqlar klinik tekshirishlardan, ulardan olingan qon namunalari esa morfologik va biokimyoviy tekshirishlardan o'tkazildi.

Tajribalar davomida jami 1250 bosh sovliq (Samarqand viloyati bo'yicha 450 bosh, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 350 bosh, Surxondaryo viloyati bo'yicha 450 bosh) sovliq va jami 625 bosh yangi tug'ilgan qo'zilar (mos holda, 210, 200 va 215 bosh) dispanser tadqiqotlari o'tkazildi.

Klinik tekshirish natijalari. Dispanserlashda sovliqlarni klinik tekshirish natijalari 1-jadvalda berilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatining Nurubod tumanidagi “Olg'a” fermer xo'jaligida sovliqlarning tana harorati yilning barcha fasllari va bug'ozlikning barcha davrlarida fiziologik chegara doirasida saqlansada, qish mavsumidan boshlab, bahor, yoz va kuz mavsumigacha ko'tarilish, bug'ozlikning dastlabki oyidan uning 4-oyiga qarab esa pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Yil fasllari bo'yicha eng yuqori tana harorati yozda ($39,10 \pm 0,03$), bug'ozlik davrlari bo'yicha esa uning 1-oyida ($39,22 \pm 0,09$), eng past tana harorati, mos holda, qishda ($38,82 \pm 0,02$) va bug'ozlikning 4-oyida ($38,61 \pm 0,02$) kuzatildi.

Bir daqiqada yurak urish soni va nafas soni yil mavsumlari bo'yicha sezilarli o'zgarishlarga uchramadi. Bug'ozlik davrining ortishi bilan har ikkala ko'rsatkich ham oshib bordi. Xususan, puls soni bug'ozlikning 1-oyida o'rtacha $71,30 \pm 0,9$ ni, uning oxirgi oyida $78,32 \pm 2,05$, nafas soni esa, mos holda, $25,2 \pm 0,5$ va $31,5 \pm 1,68$ ni tashkil etdi.

Katta qorin devori harakatining qish mavsumida nisbatan susayganligi ($2,46 \pm 0,16$), bahorda esa faollashganligi ($2,806 \pm 0,11$) qayd etildi. Bug'ozlikning chuqurlashishi bilan bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasayib bordi, ya'ni uning birinchi oyidagi $2,50 \pm 0,17$ martadan beshinchi oyiga kelib, o'rtacha $2,20 \pm 0,12$ martagacha pasayganligi qayd etildi.

Shilliq pardalarning sarg'ayishi bahor, yoz va kuz fasllarida o'rtacha 13,3 % ni va qishda 20,0 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bug'ozlikning 1-oyidagi 20,0 % dan

uning 5-oyligiga kelib 33,2 % ga yetdi. Jigar chegarasining kattalashishi va uning og'riqli bo'lishi yil mavsumlari orasida bahorda 26,6 %, bug'ozlik davrlari bo'yicha uning 4-5 oylarida 26,6-33,2 % ni tashkil etdi.

1-jadval**Dispanserlashda sovliqlarni klinik tekshirish natijalari**

Tekshirish turi	Ko'rsatkichlar							
	Tekshirish vaqti	Tana harorati, °C	Puls soni, marta/daqiq a	Nafas soni, mara/daqiq a	Katta qorin devori harakati, marta/2daq iqa	Shilliq pardalar ning sarg'ayishi, %	Jigar chegarasi-ning kattalashishi, %	Jigar sohasining og'riqli sezishi, %
Yil fasllari	Qish (yanvar)	38,82±0,02	72,05±1,5	26,72±1,13	2,46±0,16	20	20	20
	Bahor (aprel)	39,0±0,04	73,86±2,32	27,10±1,63	2,8±0,11	13,3	26,6	26,6
	Yoz (iyul)	39,1±0,03	73,7±2,43	28,6±1,25	2,73±0,14	13,3	13,3	13,3
	Kuz (oktyabr)	39,08±0,03	73,66±1,4	26,6±0,98	2,70±0,14	13,3	13,3	13,3
Bug'ozlik davrlari, oylar	1 (noyabr)	39,22±0,03	71,3±0,9	25,2±0,5	2,5±0,17	13,3	6,6	6,6
	2 (dekabr)	39,12±0,03	71,9±1,0	25,8±0,7	2,4±0,16	20	13,3	13,3
	3 (yanvar)	38,82±0,02	72,05±1,5	26,72±1,13	2,4±0,16	20	20	20
	4 (fevral)	38,61±0,02	75,6±,96	29,10±1,48	2,4±0,16	26,6	26,6	26,6
	5 (mart)	38,75±0,03	78,3±2,05	31,5±1,68	2,2±0,12	33,2	33,2	26,6

Umuman olganda, organizmida modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan bug'oz sovliqlar miqdori yanvar oyida 20, fevralda 33,2 va martga kelib – 40 % ni tashkil etdi. Bunday buzilishlar bir daqiqada yurak urishi o'rtacha 1 minutda 81 martadan ko'p, nafas sonining 1 minutda 31 va undan baland bo'lishi, katta qorin devori harakatlarining 2 minutda o'rtacha 2,9 va undan past bo'lishi, jigar sohasining og'riqli sezishi va kattalashishi belgilari bilan namoyon bo'ldi.

Demak, qorako'l sovliqlarning aksariyat klinik ko'rsatkichlari yil mavsumlari va bug'ozlik davrlari bo'yicha o'ziga xos tarzdagi o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar sovliqlar organizmida moddalar almashinuvining buzilishlari va jigar funksional holatining o'zgarishlari paytlarida ayniqsa sezilarli tus oladi. Ayni paytda, bir daqiqada yurak urishi va nafasning tezlashishi, katta qorin devori harakatining susayishi, shilliq pardalarning sarg'ayishi, jigar chegarasining kattalashishi va uning og'riqli sezishi sovliqlar bug'ozligining chuqurlashishi bilan ular organizmida modda almashinuvi buzilishlari va jigar distrofiyasining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Dispanserlashda sovliqlarning klinik ko'rsatkichlarining mavsumiy dinamikasi ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, tajribadagi sovliqlarning tana harorati, bir daqiqada yurak urish soni, nafas soni va katta qorin devorining harakati yilning barcha fasllarida fiziologik chegara doirasida saqlandi va ushbu ko'rsatkichlarning jiddiy mavsumiy o'zgarishlarga uchrashi kuzatilmadi. Shilliq pardalarning sarg'ayishi kuzatilgan hayvonlar o'rtacha 13,3-20,0 % ni tashkil etdi va bunda eng yuqori ko'rsatkich qish (20,0 %) faslida kuzatildi va qolgan fasllarda birdek, 13,3 % ni tashkil etdi.

Jigar chegarasining kattalashishi va jigar sohasining og'riq sezishi kuzatilgan hayvonlar o'rtacha 13,3-26,6% ni tashkil etdi va bunda har ikki ko'rsatkich bo'yicha ham yuqori ko'rsatkich bahor (26,6%) faslida kuzatildi, qishda birdek, 20,0% ni va qolgan fasllarda 13,3% ni tashkil etdi.

Dispanserlashda sovliqlarning klinik ko'rsatkichlarining bug'ozlik davrlari bo'yicha dinamikasi ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, tajribadagi sovliqlarning tana harorati o'rtacha 38,61 - 39,22 °C ni tashkil etdi va sovliqlarning bug'ozlik davrlari bo'yicha o'zgarishlarga uchramadi.

Bir daqiqada yurak urishi (71,3 dan 78,3 gacha) va nafas soni (25,2 dan 31,5 gacha) ko'rsatkichlari sovliqlarning bug'ozlik davrlariga mos holda bir tekisda ko'tarilib borgan bo'lsa, katta qorin devorining harakati bu paytda, aksincha pasayib (2,5 dan 2,2 gacha) bordi.

Shilliq pardalarning sarg'ayishi (13,3% dan 33,2% gacha), jigar chegarasining kattalashishi (6,6% dan 33,2% gacha) va jigar sohasining og'riq sezishi (6,6% dan 26,6% gacha) kuzatilgan hayvonlar soni bug'ozlik davrlariga mos holda oshib borganligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, qorako'l sovliqlarning aksariyat klinik ko'rsatkichlari yil mavsumlari va bug'ozlik davrlari bo'yicha o'ziga xos tarzdagi o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar sovliqlar organizmida moddalar almashinuvining buzilishlari va jigar funksional holatining o'zgarishlari paytlarida ayniqsa sezilarli tus oladi. Ayni paytda, bir daqiqada yurak urishi va nafasning tezlashishi, katta qorin devori harakatining susayishi, shilliq pardalarning sarg'ayishi, jigar chegarasining kattalashishi va uning og'riq sezishi sovliqlar bug'ozligining chuqurlashishi bilan ular organizmida modda almashinishuvi buzilishlari va jigar distrofiyasining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Norboyev Q., Bakirov B., Roziqulov N. Ichki yuqumsiz kasalliklar. Darslik. Samarqand, SamDVMChBU «Nashr matbaa markazi», 2024. 360 bet.
2. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. 2-nashr. "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2023. 232 bet.
3. Bakirov B., Safarov M.B., Ro'ziqulov N.B. Klinik diagnostika. Ichki yuqumsiz kasalliklar. Darslik. "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2023. 296 bet.
4. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar kasalliklari. O'quv qo'llanma. "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2023. 148 bet.
5. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Даминов, А. С. (2017). ва б. лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув кўлланма). Самарқанд: "Насимов" ХК, 600.
6. Рўзиқулов, Н. Б. (2024). Соғин сигирларда жигар дистрофиясини гуруҳли профилактик даволаш чора-тадбирлари. *Монография. "Фан зиёси" нашриёти, Тошкент, 128.*
7. Юнусов, Х., Рузикулов, Н., & Аскарлов, С. (2023). ЭТИОПАТОГЕНЕЗ И ЛЕЧЕНИЕ ДИСПЕПСИИ ЯГНЯТ. *Вестник Омского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (4

(5)), 75-79.

8. Asqarov S.S., Yunusov X.B., Ro'ziqulov N.B. Qo'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari // Veterinariya meditsinasi. – 2023. №8. – 18-19 bet.

9. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration, 29(01), 2273.*

10. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 556-559.*

11. N Ruzikulov, S Askarov, N Rasulov, O Boboev. (2022). [Results of treatment of lambs dysepsepsy](#). *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей VIII Международной научно-практической конференции. Пенза, 2022. 226-229.*

12. Risvanli, A., Hatipoglu, F., Salykov, R., Timurkaan, N., Kadiralieva, N., Kasymalieva, K. K., ... & Kalkan, C. Assessment of heavy metal and radioactive element levels in the ovarian follicular fluid of pregnant and non-pregnant Kyrgyz breed mares.

13. Fayzieva, S., Norboev, K., Ruzikulov, N., Rakhmonov, U., Tursunaliyev, B., & Tokoev, K. (2024). Clinical and biochemical status of calves with dyspepsia when using the probiotic “MAXLAC/DW”(Uzbekistan). In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01012). EDP Sciences.